



SARATONDA
QOR YOG'DI

**SA'DULLA
SIYOYEV**


YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2017

UO‘K: 821.512.133-32

KBK: 84(50‘)6

S – 53

Siyoyev, Sa‘dulla

Saratonda qor yog‘di: qissa / Sa‘dulla Siyoyev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 112 b.

ISBN 978-9943-20-219-1

Tinchlik – bu ulug‘ ne‘mat. Uning qanchalik azizligini farzandingizning chaqnayotgan ko‘zlaridan bilishingiz mumkin.

Abdurahmon sakkiz yosh bo‘lishiga qaramay oilaning eng kattasiman deb, mol boqadi, birovlarining uyida ishlaydi, o‘t o‘radi, o‘rik sotadi. Yig‘gan pullariga urushda xizmat qilayotgan otasiga bir juft jun paypoq sotib oladi. Cho‘loq bo‘lsa ham otasining qaytib kelishini ko‘zlari to‘rt bo‘lib kutadi... Ammo urush tugasa ham ota qaytmaydi: undan na xat bor, na xabar...

Abdurahmon esa hamon umid uzmay uning yo‘llarini poylaydi...

Kichkina jussasida bir olam orzular to‘la kitob qahramoni tengdoshlariga hayotga muhabbati, qiyinchiliklarga qaramay maqsadlaridan ortga chekinmaslikni, har qanday holatda ham umid – insonning tirgagi ekanligini xatti-harakatlari orqali isbotlab beradi...

UO‘K: 821.512.133-32

KBK: 84(50‘)6

ISBN 978-9943-20-219-1

© Sa‘dulla Siyoyev, «Saratonda qor yog‘di». «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

QAHRAMONLARI KUCHLI IJODKOR

Inson qadr-qimmatini ulug'lash, uning yashashdan maqsadi ortidan ezgu nom qoldirish, yaxshilik qilish, hayot sinovlariga mardonavor turib javob qaytarish va har qanday mashaqqatlarni yengib o'tib, hayotda o'z o'rnini qoldirishga erishish, do'stlar qadri, ota-ona va farzand o'rtasidagi rishtalar... Bu mavzularning barchasini biz Sa'dulla Siyoyev qahramonlari timsolida ko'ramiz, ular bilan birga yashaymiz.

Yozuvchi 1939-yil 25-mayda Qozog'istonning Turkiston shahri yaqinidagi Qarnoq qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. 1946–1956-yillarda Qarnoqdagi o'rta maktabda, 1957–1962-yillarda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)da tahsil olgan. O'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan adib dastlab Toshkent radiosi, respublika vaqtli matbuoti, «Mushtum» hajviy jurnallaridagi faoliyati bilan bir qator badiiy ijod bilan ham tinimsiz shug'ullangan.

So'ng adabiy faoliyatini O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg'armasiga rahbarlik qilish bilan davom ettirgan.

O'z ijodini dastlab she'r yozishdan boshlagan adib keyinchalik «Qiz bolaning pandi» (1963), «Ming

bir qiliq» (1964), «Charxpalak» (1965), «Uyimizga mehmon keldi» (1966) kabi hikoyalari bilan tanila boshlagan.

Yozuvchining birinchi lirik va hajviy hikoyalardan iborat to'plami «Qasam ichmagan yigit» nomi bilan 1970-yilda chop etilgan. Keyinchalik e'lon qilingan «Sadag'ang ketay» (1972), «To'ylar muborak» (1975), «Oy borib, omon keling» (1976), «Og'ir vaznli janjalkash» (1978), «Erkaklar ertaklar» (1979) kabi turkum asarlari esa yozuvchi ijodiy merosida muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda adibning qissa va hikoyalardan iborat «Yorug'lik» (1986), «Beparvo bo'lmoqchiman» (1990) kitoblari hamda «Avaz» (1987) romani o'quvchilar hukmiga havola etildi. 1993-yilda uning «Yassaviyning so'nggi safari» romanining birinchi kitobi chop qilindi. Bu kitobda bobokalonimiz Ahmad Yassaviy va uning hayot yo'li haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar o'rin olgan.

S.Siyoyev hikoyalari rus, qozoq, qirg'iz, tojik, uyg'ur (Xitoy) hamda turk tillariga tarjima qilingan. U M.Zoshchenko, L.Lench, A.Arkanov, G.Gorin, L.Tolstoy, A.Chexov, A.Nesin kabi yozuvchilarning hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

2017-yil adib qalamiga mansub «Abdulla Qahhorning alyor aytgani» nomli ustozlar xotirasiga bag'ishlangan asari nashr etildi hamda adabiyot muhiblari tomonidan juda katta qiziqish bilan kutib olindi.

Muharrirdan

O'GAY EMAS EKAN

Aslimni so'rasangiz – qishloqiman. Biz tomonda buloq ko'p. Soy bo'yida, qir-adir etaklarida katta qora qozonday bo'lib biqirlab yotadi. Buloqni biz «tuma» deymiz. Qishlog'imizning oti ham Mingtuma. Ana shu Mingtumaning bir chetida turamiz. Uyimiz Qoratovga boradigan yo'l yoqasida. Biznikidan kun botishga yursangiz soyga tushasiz, kun chiqishga qarab yursangiz – Qoratovga chiqib ketasiz.

Mingtuma jannatga o'xshagan yerlar. Soy bo'yida ko'k o'tovday katta-katta majnuntollar suvga sochlarini yuvib yotadi. Bog'larga kirsangiz g'uj-g'uj o'rik, shaftoli, jiyda, do'lana, tog'olcha. Hatto olmurtgacha bor. Ayniqsa, bizning dastor olmamiz zo'r. Dastor olma yemabsiz – dunyoga kelmabsiz. O'zi mushtday bo'ladi-yu, biroq mazasi asalga o'xshaydi. Oppoq, tip-tiniq. Qo'lingizga olib qarasangiz, betingiz ko'rinadi. Dadam aytadi, Mingtumaning dastor olmasini bir yegan odam Hirotdan ham qayta sog'inib keladi, deydi.

Mingtumada yana nima ko'p – yer ko'p. Shuning uchun qirlarga ham, sug'orma yerlarga ham g'alla ekaveramiz. Undan keyin ot ko'p. Har uyda uchta desam, yolg'on bo'lar-ov, ammo kamida bitta-ikkitanadan ot bor. Biz tomondagilar ko'pkarini yaxshi ko'rishadi. Bug'doy o'rib, yerlar ochildi, deguncha to'ylar boshlanadi. Ana shunda ko'pkari chopishni ko'rsangiz! Chavandoz yigitlar ko'klamda ot so-

vutaylik, deb Qoratorovning u betiga ham o'tib ketishadi. Terskayda qozoq qo'ychivonlar bor. Shular bilan uloq talashib, yorishib kelishadi.

O'zing kimsan, desangiz, Abdurahmonman. Abdusalom etikchining o'g'liman. Bu yil ikkinchini tamomladim. Endi qalin-qalin kitoblarni ham sharillatib o'qiyman. Mingtumaning chuchuk suvini ichib, maza qilib yurgan edik, juda yomon kunga qoldik-da. Uchinchi sinfga o'tdim, shukur-ey, deganimda onam o'lib qoldi. Men otadan yolg'iz farzand edim. Huvillagan uyda bir ota, bir o'g'il yer siypab qolaverdik. Onam sho'rlik uyimizning fayzi, barakasi ekan. U ketgandan keyin ko'nglimiz ham, oshxonamiz ham huvillab qoldi. Dadam aytmoqchi, uyda cho'pga sanchar bir narsa yo'q. Qaznoqda sichqonlar hassa tayanib yuradi. Dadam ko'chaga chiqadi – uh tortadi, uyga kiradi – uh tortadi. Men uning tikanak bo'lib ketgan soqoliga, qizargan ko'zlariga qarab yig'layman. Lekin ko'z yoshimni ko'rsatmayman.

Onamning yigirmasi o'tgandan keyin dadam ishga chiqib ketdi. U kunduzi Toshbuloq degan yerda pichan o'radi, tunda yamoqchilik qiladi, etik-mahsi tikadi. U qishloqdagi mana-man degan ustalardan. Odamlar to'qchilik zamonlarda to'y-hashamga etik yo mahsi-kavush tiktirmoqchi bo'lsa, Abdusalom ustaga buyuraman, oyoq to'zadi, uning tikkani to'zimaydi, deb eshigimizning changini chiqarib kelishaverardi.

Shunday qilib, ikki jon bir-birimizning nafasimizga isinib kun ko'ra boshladik. Men kechalari dadam uxlab qolmasin, keyin bir o'zi charchamasin, deb unga ip saqichlab berib o'tiraman. Dadam yarim kechasigacha etik tikadi, keyin bir

mazgil ko'z ilintirib olib, dalasiga ketadi. Men ham maktabga boraman. Biroq ko'zlarim yumilib, dar-sda uxlab qolaveraman. Muallim urishadi. Indamayman. Kitobimni ochib, o'qimoqchi bo'laman-u, yana muk tushib uyquga ketaman.

Dadam kundan-kunga tajanglashib borardi. Oxiri bo'lmadi. Bir kuni kechqurun u uyilib yotgan yuviqsiz idish-tovoqqa qarab o'ylanib turdi-da, tez-tez yurib chiqib ketdi. Anchadan keyin Abduqodir degan kichik amakim bilan qo'shnimiz Bobomurod akani boshlab keldi. Ular talaygacha gurunglashib o'tirishdi. Men choy tashib, gaplarini chala-chulpa eshitib qoldim. Amakim bir ayolni maqtardi:

– Sochlari qamchindek, ishlari lochindek. Yaxshi xotin Orzigul.

Otam nimadir dedi. Bobomurod aka gap qo'shdi:

– Qorni hali to'la bola. O'ttizga ham chiqmagan.

Bilsam, ular dadamni Orzigul degan kuyovi o'lgan juvonga uylantirmoqchi bo'lishayotgan ekan. Men mo'ltirab, uch erkakning og'ziga tikilib qoldim. Bobomurod aka boshimni siladi, kulib so'radi:

– Abdurahmon, senga yaxshi aya olib bermoqchimiz, maylimi?

Men churq etmadim. Burnimni tortib yerga qaragancha hiqilladim.

– Yig'lama, tentak, – dedi amakim, – seni urishmaydi. Qaytanga, yaxshi ko'ylaklar tikib beradi. Dadangga qara, ezilib ketibdi.

Onam esimga tushib qiynalib o'tirgan edim, uvvos tortib hovliga chiqib ketdim. Ariq labiga borib, yuz-qo'limni yuvmoqchi bo'ldim. Qop-qora suv to-vush chiqarmay, vahima bilan oqyapti. Terak ortidan zog'ora nonday oy ko'tarildi. U suvga tushib qalqib o'ynadi. Tupuk yutmay tikilib qoldim. Na-

zarimda, qalqib turgan chiroyli, qip-qizil oy – oy emas, mening onam, qaytib kelmas onajonim edi...

Apir-shapir yuvinib, qaytib kirdim. Mehmonlar ketibdi. Dadam pastak, qo'lbola kursiga o'tirib, yangi mahsining qo'njini tikiyapti. O'zi xursand, hadeb dimog'ida sho'x bir kuyni ming'illaydi.

Shunday qilib, uyimizda o'gay ona paydo bo'ldi. U qishlog'imizning narigi boshidagi Oxunguzar degan yerdan ekan.

Dunyoda o'gay onani maqtagan kam, yomonlagan ko'p. Biroq men yomonlamoqchi emasman. Jabr ne kerak, bechora yaxshi xotin ekan. Azonlab yeng shimarib ishga tushib ketadi, xuftongacha tinmaydi. Chegalangan choynak-piyolamiz yarqirab tokchaga chiqdi, ko'ylak-ishtonlarimizning yirtig'i qolmadi. Ertalabdan eski mis samovarimiz shig'illab qaynab turadi. Ilgari kech bo'ldi deguncha yon qo'shnilardan birontasi bir kosa-yarim kosa ovqat kiritardi. Endi o'zimiznikida ham qozon qaynaydigan bo'ldi.

Sal kunda uyimiz chamanday ochilib ketdi. Dadam ham xursand.

– Xotinsiz uy yengsiz choponday xunuk ko'rindi, bolam, – deydi goho, – ayangni hurmat qil.

Shuncha urinsam ham «aya» deyishga tilim bormaydi. Birozgacha «Orzigul opa» deb yurdim. Bilaman, bunga o'gay onamning g'ashi kelsa kerag-u, lekin sezdirmaydi. Meni jerkimaydi, mendan shirin so'zini ayamaydi, dadamni mendan qizg'anmaydi.

Ana shunday qilib ikki yil o'tdi. Ikki yilda ikki inilik bo'ldim. Biri – G'aybulla, biri – Fayzulla. Uyimiz bozor bo'lib qoldi. Ro'zg'orimiz ham butlana boshladi. Ikki echki, bir qo'y sotib oldik. Eshikdan birov kirsam, uyalmay oldiga dasturxonam yoza bilamiz.

Men ham bir yil o'qishdan qolib ketgan edim, yana uchinchi sinfga qatnay boshladim. Agar turmushimiz shu tarzda ketaverganda-ku, gul kesardig-a. Biroq sal o'tmay yilqiga qashqir oraladi.

MASHOQDAGI SHUM XABAR

Saraton. Men dadam bilan bug'doy o'rog'ida yuribman. Qishlog'imizning bir cheti tog'larga bo'rib tutashadi. Ana shu tog' tarafda Latifota degan joy bor. Kolxoz har yili shu yerlarga bug'doy eka-di. Bu yil ham g'alla yaxshi bitgan edi. Dadamlar qo'l o'roqda bug'doy o'radi, men mashoq teraman. Kechqurun dadam ikkalamiz ko'k eshagimizga mingashib uyga qaytamiz. Bir xurjun-yarim xurjun mashoq terib kelaman. Orzigul opa uni kaltaklab donini oladi. Qaznoqda katta qora jun qopimiz bor, g'alvirda shopirib shunga solaveradi.

Yilqiga qashqir oralagan kuni ham Latifotada edim. Mashoqning qizig'iga tushib, olislab ketib qolibman. Bir vaqt boshimni ko'tarib xirmon tarafga qaragam, olatasir bo'lib yotibdi. Har kim dovdirab, har yoqqa yuguradi. Birov eshagini egarlayapti, oshpaz xotin hovliqib cho'mich-tovog'ini yig'ishtiradi, bir yigit yaydoq otda qishloq tomonga chopib ketdi...

Ajablanib qarab turaverdim. Shu payt to'dadan otam ajrab chiqdi-yu, menga qarab kelaverdi. Yarim yo'lda qo'lini chulg'ab chaqirdi:

– Abdurahmo-on! Beri kell!

To'rvam yarimlagan edi. Yelkamga olib yugurdim. Otam qo'limdan tortib, xirmonga qarab sudradi. Unga javdirab boqib so'radim:

– Nima bo'пти, dada?

– La'nati Gitler urush ochibdi, – dedi dadam g'ijinib. – Qornimiz endi nonga to'ygani edi-ya!..

– Endi... nima bo'ladi? – dedim qo'rqa-pisa.

– Nima bo'lardi, boshga tushganini ko'z ko'radi-da, bolam.

Hash-pash deguncha dalada bir jon qolmadi. Kim eshakda, kim piyoda, hammamiz qishloqqa jo'nab ketdik. Uyimizning oldi ochiq yalanglik edi. Borsak, o'sha yalanglik to'la odam. Uyasi buzilgan ariday tinmay g'uvillaydi.

Otam to'g'ri kolxoz idorasiga burildi. Men ham eshagimni bog'ladim-u uning izidan yugurdim. Qarasam, rosa odam yig'ilibdi. Idora ro'parasidagi ombor ayvoniga qora lagan-radio osilgan edi. Hamma o'sha laganga tikilib turibdi. Qora lagan dam-badam tilga kirib, urush haqida ma'lumot beryapti. Qariyalarning qovog'i soliq, xotin-xalaj Gitlerni tobutdan olib, tobutga soladi – har maqomda qarg'aydi.

Lagan-radio jim bo'ldi. Biroq odamlar tarqalmadi. Aza tutganday yerga qarab turaverishdi. Bir vaqt raisimiz Shokir aka paydo bo'ldi. U to'dani yorib oldinga o'tdi-da, qora laganning ostida turib va'z aytdi:

– Birodarlar, tug'ishganlar! Endi uy-uy'laringga tarqalinglar! Bu yerda turgan bilan foydasi yo'q. Taqdirda nima bo'lsa ko'ramiz. Biroq ko'ngillaring cho'kmasin. Baribir biz yengamiz! Xalqda echkini ham o'z oyog'idan osadilar, degan gap bor. Gitler padarla'nati xiyonat qilibdimi – endi o'zidan o'pkalasin! O'rtoqlar! Dalada ish qizib yotibdi. G'allani tezroq yig'ib olish kerak. G'o'za gullay deb qoldi. Bir yoqda yem-xashak tayyorlashimiz kerak. Ilti-



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/4136> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/4136> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/4136>